




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2022- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 580,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 22,2 mln. AQSh dollariga yoki 0,9 %ga kamaydi.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 1018,8 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 105,1 %) va import hajmi 1562,0 mln. AQSh dollariga (o‘zgarish sur‘ati – 95,6 %) yetdi. Hisobot davrida 543,2 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-iyungacha nisbatan, %da)

### 2022- yil yanvar-iyun

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	594,1	210,8	383,2	23,0
Xitoy	521,4	192,3	329,1	20,2
Qozog'iston	440,4	62,9	377,4	17,1
Turkiya	423,7	342,4	81,3	16,4
Braziliya	103,7	0,0	103,7	4,0
Tojikiston Respublikasi	44,1	29,9	14,1	1,7
Afg'oniston	33,4	33,2	0,3	1,3
Qirg'iz Respublikasi	33,3	21,4	12,0	1,3
Italiya	30,1	10,7	19,3	1,2
Germaniya	28,4	3,9	24,6	1,1
Ukraina	28,1	11,9	16,2	1,1
Koreya Respublikasi	23,1	4,4	18,7	0,9
Belarus	21,9	11,9	9,9	0,8
Polsha	20,0	6,3	13,7	0,8
Niderlandiya	16,3	11,3	5,0	0,6
Eron (Islom Respublikasi)	15,3	2,7	12,6	0,6
Ozarbayjon	14,0	4,0	10,0	0,5
Indiya	13,5	1,9	11,7	0,5
Turkmeniston Respublikasi	12,5	6,2	6,3	0,5
Daniya	12,3	0,0	12,3	0,5




## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,1 %ni hamda o‘zgarish sur‘ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 95,5 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 53,9 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,1 %ni tashkil qilgan), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 %ni tashkil etdi.

### TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-iyun, % hisobida)






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Braziliya va Ukraina davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-iyun oyi yakuni bilan 1018,8 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 105,1 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,0 %), turli xil tayyor buyumlar (9,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,5 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,5 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,8 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-may)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>1018,8</b>	<b>361,4</b>	<b>657,4</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	91,5	45,6	45,8	9,0	12,7	7,0
Ichimliklar va tamaki	1,7	1,6	0,1	0,2	0,5	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	36,1	19,6	16,5	3,5	5,4	2,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	1,5	0,5	1,0	0,1	0,1	0,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,4	0,2	1,2	0,1	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	36,0	26,4	9,6	3,5	7,3	1,5
Sanoat tovarlari	724,0	154,4	569,6	71,2	42,8	86,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	28,5	20,2	8,3	2,8	5,6	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	94,8	91,6	3,3	9,3	25,3	0,5
Xizmatlar	3,3	1,3	2,0	0,3	0,3	0,3





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-iyun)



2022- yilning yanvar-iyun oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>105,1</b>	<b>114,5</b>	<b>100,6</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	83,2	68,9	105,0
Ichimliklar va tamaki	137,0	138,3	112,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	85,7	79,3	94,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	11,4 m.	13,4 m.	10,6 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	143,4	3,8 m.	129,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	120,7	139,1	88,6
Sanoat tovarlari	104,5	123,2	100,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	184,5	2,2 m.	129,0
Turli xil tayyor buyumlar	131,6	131,8	125,4
Xizmatlar	69,8	195,9	50,1



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyun)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 893,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 87,7 %ini tashkil qiladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 54,7 mln. dollar qiymatga ega 89,2 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 30,3 %ga kamaygan, naturada – 49,3 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 29,8 mln. AQSh dollariga teng 57,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 42,5 %ga kamaygan), shuningdek, 14,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 11,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 33,3 %ga kamaygan).

### 2022- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
11,6 ming  
tonna  
14,5 mln.



Uzum  
3,5 ming  
tonna  
4,0 mln.



Yeryon-  
g'oqlar  
2,0 ming  
tonna  
2,6 mln.



Sabzavotlar  
57,2 ming  
tonna  
29,8 mln.

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-iyun oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 44,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 4,3 %ini tashkil qiladi.


# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyun oyi mobaynida import hajmi 1562,0 mln. AQSh dollari (2021-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 95,6 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush sanoat tovarlari (20,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,6 %) mashinalar va transport asbob-uskunalari (19,8 %), noziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (18,6 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			Jamiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1562,0</b>	<b>829,4</b>	<b>732,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	321,7	154,2	167,4	20,6	18,7	22,8
Ichimliklar va tamaki	2,0	2,0	0,0	0,1	0,2	0,00
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	291,0	272,8	18,2	18,6	32,9	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	51,1	50,1	1,0	3,3	6,0	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	31,1	30,4	0,7	2,0	3,7	0,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	164,7	45,1	119,5	10,5	5,4	16,4
Sanoat tovarlari	324,9	233,8	91,0	20,8	28,2	12,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	308,9	28,2	280,7	19,8	3,4	38,3
Turli xil tayyor buyumlar	60,7	10,1	50,5	3,9	1,2	6,9
Boshqa tovarlar	1,9	1,9	0,0	0,1	0,2	0,0
Xizmatlar	4,4	0,8	3,6	0,3	0,1	0,5

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (32,9 %), sanoat tovarlari (28,2 %), MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (38,3 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (22,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-iyun, % hisobida )


Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>95,6</b>	<b>89,1</b>	<b>104,2</b>
shujumlardan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	143,1	145,4	141,1
Ichimliklar va tamaki	43,0	45,1	4,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	87,9	86,3	122,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	78,6	77,8	151,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	71,2	76,6	16,9
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	140,8	134,2	143,5
Sanoat tovarlari	114,7	115,1	113,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	66,3	19,8	86,9
Turli xil tayyor buyumlar	82,4	68,6	85,8
Boshqa tovarlar	24,8	51,3	0,1
Xizmatlar	24,8	32,4	23,5





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyun)



Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Italiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1318,7 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, bu umumiy import hajmining 84,4 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo‘limi**  
Tel.: (71) 202-86-59